

ERKIN A'ZAMNING "TANHO QAYIQ" ASARIDA OROL BOBO OBRAZINING XARAKTERLI JIHLTLARI

Sevinch Egamberdiyeva

egamberdiyevasevinch02@gmail.com

Guliston davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada obrazning xarakteri, uning ramziy ifodalari Erkin A'zamning "Tanho qayiq" asaridagi obrazlar timsolida yoritib berilgan. Maqolada yozuvchining obraz yaratishdagi mahorati, asarning davr va zamon talablaridan kelib chiqib tanlangan syujeti va kompozitsiyasi haqida tushunchalar berilgan. Asarning asosini tashkil etuvchi obrazlardagi xarakter haqida turli xil adabiyotshunos olimlarning qarashlari o'rganilgan va maqolada ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xarakter, obraz, Orol bobo, personaj.

Abstract: In this article, the sign of the image, its symbolic expressions are highlighted in the image of the images in the work "The Lonely Boat" by Erkin A'zam. The article provides insights into the writer's skills in the image, the plot and composition of the work based on the requirements of the era and time. The opinions of various literary scholars about the character in the images that form the basis of the work are studied and shown in the article.

Key words: character, image, Aral Baba, character.

Аннотация: В данной статье знак образа, его символические выражения выделены в изображении образов в произведении «Одинокая лодка» Эркина Азама. В статье дается представление о мастерстве писателя в изображении, сюжете и композиции произведения с учетом требований эпохи и времени. В статье изучены и показаны мнения различных литературоведов о персонаже в образах, составляющих основу произведения.

Ключевые слова: характер, образ, Арол Баба, характер.

Har qanday badiiy asarning asosini obrazlar tashkil etadi. Obrazlar orqali asarning mazmun-mohiyati, ilgari surgan g'oyalari, syujeti va kompozitsiyasi ochib beriladi. Har bir obraz turfa xil ko'rinishga, xarakterga ega bo'ladi. Yozuvchi shu yo'l orqali jamiyatdagi muammolarni, insonlardagi yaxshi va yomon xislatlarni ko'rsatib beradi. "Xarakter" so'zi yunoncha "charakter" so'zidan olingan bo'lib "xususiyat", "belgi"

degan ma'nolarni anglatadi.¹ Asar boshida qahramonlar xarakterini yozuvchining o'zi belgilaydi, keyinchalik esa har bir qahramon o'z tabiatiga ko'ra o'zi tanlagan yo'ldan boradi.

Xarakter haqida bir qancha olimlar: Hotam Umurov, Erkin Xudoyberdiyev, Dilmurod Quronov va boshqalar turlicha fikr bildirishgan. Rus yozuvchisi Nikolay Pogodin esa shunday deydi:

“Agar obrazni yong'oqqa qiyoslasak, xarakter shu yong'oqning mag'zidir. Chunki mag'izda yong'oqning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni jamuljamdir. Shu sabab xarakter yaratilsagina — badiiy asar yaratiladi”.²

Har bir yozuvchi asar yaratishda qahramonlar xarakterini to'g'ri yoritib bera olsagina, kitobxonlarni asarga shunchalik qiziqтира oladi. Shunday yozuvchilardan biri bo'lgan Erkin A'zam ham barcha asarlarida xilma-xil obrazlar, qahramonlar va ularga xos bo'lgan xarakterlar yaratadi. “Jannat o'zi qaydadir” asarida talaba Asqar Shodibekovni, “Javob” qissasida Nuriddin Elchiyevni, “Bayramdan boshqa kunlar” asarida kamtar, kamgap bo'lgan Bakir obrazlarini o'ziga xos xarakter va ko'rinishlarda tasvirlaydi.

Shu bilan birga o'z davrining dolzarb muammosini ko'rsatgan “Tanho qayiq” asarini ham yaratadi. Yozuvchi asarda global muammolardan biri bo'lgan orol fojeasini qahramonlar nigohida tasvirlab beradi. Bu asarda O'tagan, Qalimbet, Amet, Genjamurod, Tilovbergan, Jumaboy, Gulxadicha kabi bir qancha obrazlar qatnashsa ham bularning barchasi Orol bobo atrofida yaxlit syujet sifatida bit nuqtaga yig'iladi. Orol bobo - bu shunday obrazki, Erkin A'zam bu obrazni Orolning yaxlit o'zi sifatida tasvirlaydi. U shu Orolga tug'iladi. Orolni shunchalik sevganidan ismini ham yodidan chiqaradi:

*“Ha-a, esingni tanib, ko'rgan-bilganing - Orol bo'ldi. Ko'm-ko'k mavjlararo otang qayiqda eshkak eshib borayotir, sen uning qo'ynida... Shundan oting “Orolbola” bo'lib ketdi. Keyin-keyin - Orolboy, endilikda – Orol bobo. O'zingning oting-chi, o'zingning chin oting nima edi? E, kimning esida bor deysiz! “Orol” bo'lsa kerakda”.*³

¹ Adabiyotshunoslik asoslari fanidan o'quv uslubiy majmua, Guliston-2022

² Hotam Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi Toshkent-2004, 48-b

³ Erkin A'zam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

Erkin A'zam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

Orol bobo ota - bobolaridan meros qolgan hunar qayiqsozlik bilan shugʻullanadi va shogirdlariga ham oʻrgatadi. Orol dengizida suv qurib hamma qishloqdoshlari boshqa joylarga koʻchib ketgan boʻlsa ham u oʻzi tugʻilib oʻsgan diyordan ketishni xohlamaydi, ayolining mozorini, ota-bobolarining xokini, qolaversa, Orolini tashlab keta olmaydi:

“ He, esini yegan telba chol! Oroling seni tashlab ketganiga necha zamonlar boʻldi-ku! Endi qaytmaydi u, ey nodon! Sen esa bir ovulda bir oʻzing soʻppayib oʻtiribsan. Qoʻni-qoʻshni ovuldoshlaring allaqachon koʻch-koʻronini koʻtargan, hovli-joylari boyoʻgʻliga makon boʻlib yotibdi, ana! Lekin – har birining tomida bittadan qayiq. Sen yasagan qayiq, shogirdlaring yasagan qayiq. Suvga tashna, suvga ilhaq...”⁴

Yolgʻiz oʻzi shogirdlari bilan birga qayiq yasaydi, bir kunmas bir kun orolga suv qaytib kelishidan umid qiladi. Uning farzandlari Qalimbet va Gulxadicha otasini oʻzlari bilan moddiy manfaatlari yuzasidan shaharga olib ketishmoqchi boʻlishadi. Oʻgʻli Qalimbet hajga joʻnatmoqchi boʻlib boshqa kishining oʻrnini pulga sotib olganida shunday javob oladi:

“ Orol bobo. Nima? Birovning oʻrniga?! (U balodan qochgan kabi, ikki qoʻli oldinda, tislani) Yoʻq-yoʻq, bormayman. Minbaʼd! Birovning oʻrnini tortib olib hajga joʻnash!... Oʻylab qildingmi shu ishni, Qalimbet? Gunoh-ku bu axir, gunohi azim!

Qalimbet. (suv yuqtirmay). He, koʻchadagi bittasi borgandan koʻra - siz, mening otam borgani yaxshi emasmi?!

Orol bobo (qatʻiy turib). Yoʻq dedimmi, yoʻq! Kimning oʻrnini olgan boʻlsang, oʻshaning oʻziga eltib topshirasan, gap tamom! Xudoyim oʻzi kechirar, otangning sigʻinadigan ziyoratgoh-u ibodatgohi ham mana shu oʻzi tugʻilib oʻsgan tashlandiq ovuli bugun qurib qolgan boʻlsayam, umrini bergan – Orol! Shundan oʻzga hech narsa kerak emas unga, bilib ol, bola“⁵

Orol bobo qanchalik sadoqatli, iymonli inson boʻlsa, uning farzandlari shunchalik iymondan yiroq, oʻz manfaatlarini boshqalarnikidan ustun koʻruvchi, xudbin kimsalar

⁵ Erkin Aʼzam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

ko‘rinishida tasvirlanadi. O‘g‘li Qalimbet o‘z farzandlarini ham bobosiga ko‘rsatmaydi, nevaralaridan mahrum qiladi:

“ Qalimbet. Hozir, hozir... (U shosha-pisha turib, dastgoh ustida yotgan “diplomat”idan allanarsa - planshetini oladi-da, tugmachalarini bosa-bosa otasining boshiga keladi). Mana, ko‘ring... Qani, toping-chi, manavi kim?

Orol bobo (sinchiklab-suqlanib). Kamolingmi? Voy-bo‘-o‘, arslondek bo‘lib ketibdi-ku! (Yuzini chetga olib.) Tuf-tuf, yomon ko‘zlardan asragaysan iloyim. (So‘ng jur‘atsizgina engashib, planshetga lab tegizib qo‘yadi – o‘pgan bo‘ladi). Shuginani qavatimga qo‘yib ketmading-da, Qalimbet. To‘ng‘ich nevara – bobosiniki degan udumlar bo‘lgich edi...

Qalimbet. Nima ovulma-ovul tezak terib yursinmidi!..

Orol bobo (orzumandona). Qayiqsoz qilardim. Zo‘r qayiqsoz usta!

Qalimbet (eshitmaganga olib). Bunisini taniyapsizmi? Kim?.. (Chol tikila – tikila topolmagach.) Gulzira-ku, Gulzira! Yaxshilab qarang...

Orol bobo. Qiz maxluqning shaytoni bo‘larmish, qulog‘idan tortib o‘stiraverarmish... Cho‘zilib qolibdi qizing. Omon bo‘lsin, omon bo‘lsin.

Qalimbet. Mana bunisi-chi?...

Orol bobo (qaray-qaray bo‘yniga oladi) Buningni taniyolmadim, rosti. Ko‘rmagan ekanman. Kenjatoying bo‘lsa kerag-a?”⁶

Orol boboning uchta Amet, Genjamurod, Jumaboy ismli shogirdlari bo‘ladi. Orol bobo shogirdlari ichida Ametni ko‘proq yaxshi ko‘radi. Amet qayiq yasashda Orol bobodan barcha siz-asrorlarni o‘rgangan, usta darajasiga yetib qolgan bo‘lsa ham, uning otasi uni qayiqsoz bo‘lishini xohlamaydi. Ametni Leningradga salat kesishga jo‘natmoqchi ekanligini aytib, uni olib ketadi. Shunda Orol bobo bu holatdan ta‘sirlandi shogirdlariga bir hikoyani aytib beradi:

“ Orol bobo (rivoyatga kirishib). Pirning qirq muridi bor ekan. Sizlarga o‘xshagan shogirdi. Qirq yil ichida kamaya-kamaya, oxiri shulardan bittasigina qolibdi. Ameting misoli birin-sirin tashlab ketgan-da. Pir o‘sha qolgan murididan so‘rabdi:

“Bularing nega bunday qildi ekan?” Murid chaynala- chaynala aytibdi: “Ular sizning ta‘limingiz bilan Mangu kitobni o‘qiydigan maqomga yetdi. U kitobda esa...

“ “Gapir-gapir”, deb qistabdi pir. “ U kitob sizni do‘zaxiy deb yozgan ekan, ustoz...”

“Bilaman, - debdi pir. – Haqrost, shunday yozilgan. Ammo men jannatdan ham

⁶ Erkin A‘zam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

ulug‘rog‘ini ko‘zlaganman-da... Ular-ku jannat ilinjida ketibdi, xo‘sh, sen nega qolding?” “ Chunki o‘sha kitobni o‘qishni sizdan o‘rganganman-da, pirim”, debdi murid. Qarang, qanday oqibatli ekan - a, shogirdi!..

Genjamurod. Bobo-o, jannatdan ham zo‘r deyapsiz, qanaqa joy u?

Orol bobo. Bor, o‘g‘lim, shunday joy bor. Haq, haqning dargohi deydilar uni. Bandasi umidvor-da. Mana bobong ham umid bilan yashayapti-ku!...”⁷

Shogirdlari Orol boboni Orolga shunchalik muhabbat qo‘yganini ko‘rib ta’sirlanishadi. Orol boboning Orolni ko‘rish orzusi borligini, uni ko‘rsa armonsiz keta olishini bilgach, ovuldan shisha siniqlarini yig‘ib Orol tomonga terib chiqishadi. Bu g‘oya Ametdan chiqqan edi. U ham ketolmaydi, orqasiga qaytadi. Do‘stlari shishalarni Amet aytganidek terib chiqqanidan so‘ng Orol boboning uyg‘onishini kutishadi:

“ Tong! Uzoqlardan kelayotgan dengiz shovqinlari boyagi qo‘shiqqa qorishib, uni bosib ketadi. Ana – to‘lqinlar bir-biriga urilib shaloplashi, jonsarak mavjlar shiviri, eshkaklarning bir maromdagi g‘ichir-g‘ichiri...

Tom boshidagi ona qayiqda Orol bobomiz tik turibdi. Qalpog‘i qo‘lida, quvonchdan ko‘zlari chaqnab har yonga alanglayotir. Chetan ortidan shogirdlar sasi eshitiladi: “ Ko‘rdi! Ana, qaranglar- ko‘rdi!”

Orol bobo (hayqira – hayqira). Mana, keldi! Axiyri keldi! Suv, suv!... Orolimiz suvga to‘ldi odamlar! Yashasin, dod! Shu kunni ko‘rdim-a! Endi o‘lsa armonim yo‘q... (Qo‘llarini ko‘kka cho‘zib). Omonating olsang ham roziman, bariga roziman! Shukur, shukur...”⁸

Orol bobo Orolning qurishida barchani ayblaydi. Olim-u ulamolar ham, boshqasi ham endi Orolni to‘ldirolmasligini, chunki bularning barchasi o‘zlarining foydasini o‘ylashini, manfaatlari yo‘lida har qanday ish qilishdan ham toymasligini ta’kidlaydi. Xudo bundaylarga insof bergan kuni Orol o‘z – o‘zidan suvga to‘lishiga ishonadi. Mabodo bir kun ajali yetib, suv kelganini ko‘rmay ketar bo‘lsa, o‘ligini qayiqqa solib Orolga eltib tashlashini vasiyat qiladi, Orolni deb baliqlarga yem bo‘lishga ham rozi bo‘ladi.

⁷ Erkin A‘zam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

⁸ Erkin A‘zam “Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi” Toshkent-2018

Erkin A'zamning "Tanho qayiq" dramasi nafaqat o'sha davrga, balki hozirgi kunga ham aloqador ekanligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Hozirgi kunda ham jamiyatimizda Qalimbet va Gulxadicha kabi bemehr, xudbin farzandlar, o'z manfaatini o'ylovchi, uni barcha narsadan ustun ko'ruvchi kimsalar ko'plab uchramoqda. Ammo Orol bobo kabi Vatanini sevuvchi, har qanday vaziyatda ham uni tashlab ketmaydigan, sadoqatli, iymonli, birovning haqidan qo'rqadigan insonlar ham yo'q emas. Zero, Ona Vatan – biz tug'ilib o'sgan joy har qanday manfaatlardan ham ustunroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin A'zam Mustaqillik davri dramaturgiyasi Toshkent-2018
2. Erkin A'zam "Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi" Toshkent-2018
3. Dilmurod Quronov Adabiyotshunoslik nazariyasi Toshkent-2019
4. Hotam Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi Toshkent-2004
5. Adabiyotshunoslik asoslari fanidan o'quv uslubiy majmua, Guliston-2022